

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MENEJERLARNI TAYYORLASH ZARURIYATI

**Yuldasheva F.F**

*Ilmiy rahbar:*

*O'zDJTU katta o'qituvchisi*

**Reyimbayeva Shemshat**

*O'zbekiston Jahon tillari universiteti 2 kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktablarda menejer(rahbar)larni tayyorlash zaruriyati, ularning o'quv va jamoat ishlarida yetakchilik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus kurslar, bugungi kunda maktab va o'quv dargohlarida faoliyat yuritayotgan menejerlardan talab etiladigan sifatlar haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Menejment, rahbar, umumta'lim, maktab, xalq ta'limi, tizim, axborot, texnologiya*

Xalq ta'limi tizimi tub islohotlar jarayonini boshdan kechiryapti. Har qanday islohot muvaffaqiyati joylarda uni hayotga tatbiq etuvchi ijrochilar salohiyatiga bog'liq. Oliy ta'lim muassasalari huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha hududiy markazlar Xalq ta'limi vazirligi idoraviy bo'ysunuviga o'tkazilishi belgilangan.

Yangicha yondashuv zaruriyati Xalq ta'limi tizimidagi rahbar kadrlar malakasini oshirishni takomillashtirish maqsadida Respublika institutlarida xalq ta'limi sohasida menejerlik ko'nikmalarini shakllantirish kurslari tashkil etildi. Bir oylik kursda ta'lim tizimi va maktab rahbarlariga "O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosati", "Ta'lim menejmenti", "Loyihalar menejmenti", "Ta'limni boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari", "O'quv jarayonini modernizatsiyalash, ta'lim sifatini ta'minlash tamoyillari va yondashuvlari", "Zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar", "Rahbar imiji va muloqot madaniyati (self menejment)", "Boshqaruvda axborot texnologiyalari", "Ta'lim samaradorligi va uni baholash", "Boshqaruv psixologiyasi", "Amaliy xorijiy til" kabi modullar bo'yicha mashg'ulotlar olib borilmoqda.

Mashg'ulotlar mazmuniga bugungi kun rahbarining mas'ulligini yanada oshirish, tanqidiy tahlil, izlanishlar olib borish va shunga muvofiq ta'lim muassasasi missiyasini anglash, mahoratli boshqaruvni joriy etish, xorijiy tillarni chuqur o'rganish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, iqtisodiy va tadbirkorlikka oid bilim va malakaga ega bo'lish kabi masalalar kiritilgan. Institut professor-o'qituvchilari ham darslarni amaliy tarzda, interaktiv usulda tashkil etishga harakat qilmoqda, ma'ruza mashg'ulotlari 20 foizdan oshmayotgani ham maktab rahbarlarining yanada faol ishtirokiga sabab bo'lmoqda.

Menejerlik laboratoriyalari faoliyati ta'limning yanada samarali natija ko'rsatishiga turtki beryapti.

Institutda rahbar xodimlarning amaldagi o'quv dasturlariga korporativ, natijaviy (result based management) va ta'lim sifatini umumiy boshqarish (TQM) tamoyillari mazmunini singdirish uchun jahonning 20 dan ortiq davlatlari, jumladan, Rossiya, Germaniya, AQSh, Angliya, Janubiy Koreya, Gruziya tajribalari o'rganib chiqildi. O'quv rejasi va dasturlar mazmuni o'zgartirilgani bugungi kunda o'zining samarasini bermoqda.

Jumladan 2018-yil 7—20-noyabr kunlari Germaniyaning Gyote instituti Toshkent filiali bilan hamkorlik doirasida o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasidagi yetakchi mutaxassis, pedagogika va psixologiya fanlari doktori, professor Villi Rolf Xanish institut professor-o'qituvchilari bilan seminar-trening o'tkazdi. Tashrif davomida menejerlik kurslarining o'quv reja va dasturlari tanqidiy ko'rib chiqilib, Germaniya tajribasi asosida yangi dastur loyihasi ishlab chiqildi. 2018-yil 27-noyabr kuni Janubiy Koreya elchixonasi qoshidagi Koreys o'quv markazi bilan hamkorlikda xorijiy tillarni, jumladan, koreys tilini o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbir tashkil etildi.

Rossiyaning A.S.Pushkin nomidagi rus tili va adabiyoti instituti bilan ikki tomonlama hamkorlik shartnomasi tasdiqlangan. Unga ko'ra, mamlakatimiz maktablarida faoliyat yuritayotgan rus tili va adabiyoti fani o'qituvchilarini masofaviy qayta tayyorlash kurslarini tashkil etishga kelishib olindi. Ayni paytda masofaviy kursning o'quv rejasi va dasturi ishlab chiqilmoqda.

Toshkent shahridagi INHA universiteti bilan hamkorlik memorandumiga asosan, institutda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv jarayonlarini tashkil etishning avtomatlashtirilgan dasturi ishlab chiqildi. Mazkur loyiha 2019-yil-aprel oyidan amalga tatbiq etiladi. Dastur menejerlik kurslarining sifati va tinglovchilar o'zlashtirish darajasini baholabgina qolmay, xalq ta'limi rahbar va mutaxassis xodimlarining yagona ma'lumotlar bazasini ham tartibga soladi.

Hozirgi kunda menejment fanning, tashkilotning samarali va samarali ishlashi uchun intellektual, moddiy va moliyaviy resurslarni jalb qilish san'ati sifatida qaraladi. Boshqaruvda umumiy maqsadga erishish uchun jamoani tashkil etish uchun odamlarni boshqarish bilan bog'liq tashkiliy - texnik, psixologik va pedagogik jihatlar birlashtirilgan. Ta'limdagi menejment bu o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan va o'ziga xos bo'lgan maxsus menejment subsanoatidir. Bu ta'lim boshqaruvchisi ishining natijalariga bog'liq. O'quv jarayoni menejerining ish mavzusi boshqaruv faoliyati hisoblanadi. Menejmerning asosiy vakolatlari: ta'limni boshqarish sohasidagi vaziyat va jarayonlar to'g'risida tizimli konseptual tasavvurga ega bo'lish, tadqiqotning fundamental asoslarini ishlab chiqishda aniq uslubiy yondashuvlar va tamoyillarni tanlash va ulardan foydalanish qobiliyati; fan va amaliyot sohasi sifatida ta'limni boshqarish bo'yicha bilimlarni yangilash va tizimlashtirish qobiliyati; ta'lim tashkiloti

uchun muhim bo'lgan muammolar va qarama-qarshiliklarni aniqlash va aniqlangan muammoni hal qilish uchun bosqichma-bosqich tadqiqotlar mantig'ini yaratish qobiliyati; ta'limni boshqarish sohasidagi tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda zamonaviy uslubiy vositalardan foydalanishidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. <https://fayllar.org/xalq-talimi-sohasidagi-menejerlik-konikmalarini-shakllantirish.html?page=3>
2. <https://valenteshop.ru/uz/kursy-trening-menedzherov-cho-dolzhen-delat-specialist-po-treningu/>
3. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/2750.htm>
4. <https://gostehstroy.ru/uz/pitanie/kursy-menedzhmenta-upravlenie-ot-a-do-ya-professiya-menedzher-v-obrazovani/>